

## "KUNDALIK.COM" PLATFORMASINING MAKTAB TIZIMIDA TUTGAN O'RNI

**Kamola To'xtasinova**

*Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti  
o'zbek tili yo'nalishi 1-kurs talabasi*

**Ilhomjon Aldashev**

*Farg'ona davlat universiteti axborot  
texnologiyalari kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O'zbekiston maktablarida yaqin yillardan beri foydalanib kelinayotgan "Kundalik.com" dasturi, uning ta'lim tizimiga kirib kelishi, afzalliklari va ahamiyati haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Pandemiya, masofaviy ta'lim, kundalik.com, kundalik family, obunalar.*

### THE ROLE OF "KUNDALIK.COM" PLATFORM IN THE SCHOOL SYSTEM

**Abstract:** *This article talks about the "Kundalik.com" program, which has been used in the schools of Uzbekistan for recent years, its introduction into the educational system, its advantages and importance.*

**Keywords:** *Pandemic, distance learning, daily.com, daily family, subscriptions.*

#### KIRISH

Axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan asrda ularning har bir sohadagi o'rni juda beqiyos, albatta! Avvalo, barchamizga ma'lum bo'lgan qo'l telefonlari va kompyuterlar, muzlatgich va changyutgichlar va yana hayotimizda ishlatiladigan juda ko'plab elektron vositalarning bizga beradigan qulaylik va imkoniyatlari xususida to'xtalsak:

—ular yordamida bugungi kundagi eng so'nggi yangiliklar, o'zgarishlar haqida muntazam bilish imkoniyatiga egamiz;

—ular bizni ortiqcha mablag' va vaqt sarflashdan to'xtadi;

—kamroq mehnat, ammo ko'proq natijaga ega bo'lamiz;

—bizga kerak bo'lgan barcha ma'lumotlarni bitta faylda saqlashimiz mumkin;

—elektron kitoblar sabab bugun biz kitob yetishmovchiligi, ularni topishdagi qiyinchiliklardan xalos bo'lganmiz;

—telefonimiz yordamida hatto juda uzoqda bo'lgan insonlarimizdan ham xabar olishimiz, ularni ko'rib turishimiz mumkin;

Yuqoridagi ro'yxatni istaganicha kengaytirish mumkin. Chunki insonlar tan olishi kerak bo'lgan rad etib bo'lmaydigan haqiqatlardan biri, axborot texnologiyalarining bizga beradigan cheksiz imkoniyatlaridir!

Axborot texnologiyalari barcha sohalar kabi ta'lim tizimida ham tub burilishlarga sabab bo'lmoqda. Yurtimizda o'tgan pandemiya davrida ham raqamli texnologiyalarning keng imkoniyatlaridan foydalanish natijasi o'laroq, juda ko'p o'zgarishlar sodir bo'ldi! Oliy ta'lim tizimiga kirib kelgan HEMIS darsturi talabalarga va ustozlarga juda ko'p qulayliklar yaratdi. Bundan tashqari maktab ta'lim tizimiga kirib kelgan Kundalik.com platformasi o'qituvchilar va o'quvchilarga keng imkoniyatlar taqdim etdi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

"Kundalik.com" o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar, ta'lim muassasalari ma'muriyatlari, hamda ta'limni boshqarish organlari vakillari uchun yagona elektron ta'lim tizimidir. Tizim onlayn tarzda o'qituvchilarni darslarini rejalashtirish, dars jadvallarini tuzish, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi va davomatini elektron jurnal va kundaliklarda qayd etib borish, shuningdek, ta'lim boshqaruv organlari va muassasalarga statistik hisobotlarni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Ota-onalar elektron kundalik yordamida, uydan chiqmasdan va ishdan chalg'imasdan, o'z farzandlarining baholarini, uy vazifalarini va davomatini onlayn rejimda nazorat qilishlari mumkin. Ushbu raqamli vosita eng muhim maktab yangiliklaridan, masalan, jadvaldagi o'zgarishlardan yoki tantanali kiyimda kelish zaruratidan xabardor bo'lish imkonini beradi. Agar o'qituvchi yoki boshqa ota-onalar bilan biror masalani muhokama qilish kerak bo'lsa, buni ham tizim ichida tez va oson qilish mumkin. Elektron kundalik tufayli bolalarda darsda faolroq bo'lish, orqa partada jimgina o'tirmasdan o'z iste'dodlari va imkoniyatlarini namoyon etish uchun ko'proq motivasiya paydo bo'ladi. Bunda o'qituvchi bevosita dars paytida o'quvchining ota-onasiga sharh yozishi, bolani maqtashi yoki, aksincha, nomaqbul xulqiga e'tibor qaratishi mumkin. Shuningdek platforma o'qituvchilarga ortiqcha qog'oz hujjatlarni to'ldirishga vaqt sarflamaslikka va vaqtini ko'proq ta'lim jarayoniga ajratishga, o'qitish ishlariga ijodiy yondashishga yordam beradi.

### **NATIJA**

Xususan:

—O'qituvchilar jurnal, dars jadvali, o'quv rejasidan elektron tarzda foydalanyapti, virtual konferensiyani amalga oshirib, e'lonlarni ham qulay tartibda joylashmoqda.

—Pedagoglar o'z o'quvchilari va ularning ota-onalari bilan operativ muloqotni yo'lga qo'ya olishdi, boshqa hududdagi o'qituvchilar bilan tajriba va materiallar almashishlari qulaylashdi.

—O'quvchilar uy vazifalari, dars jadvali, baholari haqida doimiy ravishda ma'lumot olib borishyaptilat, kundalik elektron shaklda yuritilyapti. Onlayn test va masofaviy ta'limdan foydalanish imkoniyati ham mavjud.

—Ota-onalar esa farzandining davomati va o'zlashtirishidan doimiy boxabar bo'lib bormoqda. Maktab rahbariyati va o'qituvchilar bilan masofaviy tarzda muloqot qila olishlari osonlashdi. Farzandining ta'lim olish jarayoni bilan bog'liq voqealar, uning qayd etayotgan ko'rsatkichlari haqida ma'lumot olib borishyapti. Ta'lim

sohasidagi ma'muriy idoralar ham chetda qolishmaydi. Ular ta'lim jarayonini monitoring qilish, hisobotlar va hujjatlarni yagona bazadan qiyinchiliksiz qabul qilish, statistik tadqiqotlar olib borishmoqdalar.

### **XULOSA**

Kundalik.com tizimida nimalarni o'zgartirdi?

—Bir-birini takrorlovchi hujjatlarni to'ldirish mashaqqati yo'qoldi, sinf jurnallari, qaydnomalar, o'quvchilar kundaliklarining barchasi elektron ko'rinishga o'tdi. —Pedagog, o'quvchi va ota-ona o'rtasida interaktiv muloqot uchun maydon hosil bo'ldi.

—Videodarslar, elektron kitoblar, dars jarayoni uchun kerakli qo'shimcha adabiyotlarning to'liq va yagona bazasi paydo bo'ldi. Mobil qurilma va kompyuter yordamida internet orqali istalgan vaqt va joyda bimalol foydalanish mumkin.

Kundalik.com Rossiyaning Dnevnik.ru portali muqobili sifatida yaratilgan. Rossiyada xuddi shu tizimning joriy etilishi natijasida pedagog kadrlarning vaqti iqtisod qilinishi bilan birga anchagina mablag' va qog'ozning ham tejaliishi isbotlangan. Xususan, an'anaviy ko'rinishdagi jurnal va kundaliklar o'rniga elektron shaklga o'tish natijasida 377,396 tonna qog'oz, 129,9 mlrd rubl mablag' tejalgan. Birgina hujjatlarni to'ldirishning elektron shaklga o'tkazilishi pedagog ish soatining 30 foizini tejashi ma'lum bo'ldi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Talim jarayonini tashkil etishda metodlar va ularning imkoniyatlari I Aldashev, S Aldasheva - Journal of technical research and development, 2023
  2. Современные информационные технологии в образовании-это новые возможности И Алдашев - Экономика и социум, 2020
  3. Sun'iy idrokning kelajakka ta'siri: uning insoniyat hayotidagi ahamiyati Z Sidiqova, I Aldashev - Научный Фокус, 2023
  4. Akt rivojlangan davrda ta'lim boshqaruvida masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish usullari A Ilhomjon - Научный Фокус, 2023
  5. Turli sohalarda axborot texnologiyalarining tutgan roli S.Madinabonu, A.Ilxomjon - Научный Фокус, 2023
  6. Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalarni o'rni M To'rayev, ST Aldasheva, IT Aldashev - Results of National Scientific Research International ..., 2023
  7. The importance of primary school teachers to use act in their activities T Tojiyev, I Aldashev - 2022
  8. Ta'lim jarayonida kompyuter o'yin texnologiyalarining o'rni\*ITX Aldashev - ... : Innovative, educational, natural and social sciences, 2022
  9. Shermatova, X.M. & Komilova, Z.X. (2022). Axborot kommunikatsion texnologiyalar va ta'lim jarayonlarini modellashtirish. 228 b.
- Yuldasheva, G., & Yo'ldosheva, M.(2023). Yangi innovatsion texnologiyalarning pedagogik jarayondagi roli. Talqin va tadqiqotlar, 1(6).